

“JAJMAN” HIKOYASI SUJETIDA REAL VA NOREAL UNSURLARNING BADIY MANTIG‘I**Fatullayeva Nilufar Oqiljon qizi**

Denov tadbirkorlik va pedagogika universiteti,
magistratura bo‘limi O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi
1-kurs magistranti

Ilmiy rahbar: **Ilyos Jo‘rayev**<https://doi.org/10.5281/zenodo.15669849>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Xurshid Do'stmuhammadning "Jajman" hikoyasida real va noreal unsurlar uyg'unligi badiiy tahlil qilinadi. Asarda ramzli obrazlar orqali inson ruhiyatining chuqur qatlamlari ochib berilgan. Ayniqsa, Jajman obrazi orqali muallif insoniyatdagi salbiy holatlar, nafs va ojizlikni falsafiy-estetik yondashuv bilan aks ettiradi. Maqolada shuningdek, hikoyadagi obrazlar talqini, timsollar, diniy va mifologik kontekstda yoritiladi.

Kalit so‘zlar: real unsurlar, noreal obraz, Jajman, ramz, nafs, timsollar, tasavvuf, Zardushtiylik, falsafa, hikoya.

Insoniyatning qismati umrining mazmuni o‘rganishdir. O‘rganish yo‘lida hech qanday sa’y-harakatni kamsitish mumkin emas, lekin bir haqiqat borki, uni inkor etish qiyin. U haqiqat juda oddiy va juda boqiy: inson dunyoni va o‘zini o‘rganishi uchun eng katta, eng beqiyos, eng behisob va eng beminnat boyligi va ming afsuski, eng qadrsizi ham INSON. Xurshid Do'stmuhammad o‘z asarlarida ana shu INSONning eng ichki intim qatlamlarini tasvirlashga intiladi. asarlarining yana bir o‘ziga xos jihati, ularda yozuvchi nazari yaqqol sezilib turadi. Asarlarning barida, nafaqat, bir davr muammolari va ruhi, balki yuqorida aytganimiz, insonning ruhiy kechinmalari o‘z aksini topgan. Shuningdek, yozuvchi jumboqli hikoyalar yozishni ma’qul ko‘radi. Qaysi ma’nodaki, uning hikoyalarida ramz va qahramonlar ruhiyati bir-birini to‘ldirib, o‘zaro mutanosiblikda keladi. Yozuvchi ijodida "badiiy obraz" ko‘p o‘rinda "ramzli obraz" sifatida talqin qilinadi. Uning ruhiyat tasvirini ifodalashda ramzlardan mohirona foydalanishi orqali yaratilgan asarlaridan biri - **"Jajman"** hikoyasidir. "Jajman" hikoyasini yozishda yozuvchi falsafiy dunyoqarashga tayanganligi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Jajman, u kim yoki nima? Bu savol nafaqat kitobxonlarni, balki butun adabiyot ixlosmandlarini qiziqtirib qo‘ydi. X.Do'stmuhammad hikoyasida roviy mistik kuch, qahramonlar ko‘ngliga qo‘rquv urug‘ini qadovchi pinxoniy jajman. Buning sababi, muallif hikoyalarida real va noreal hayot birga, uyg'unlikda tasvirlashi bo‘lsa kerak.

Hikoyada keltirilgan timdagi odamlar bilan jajman o‘rtasidagi munosabat go‘yoki, Axuramazda va Axriman o‘rtasidagi kurashga ishora sifatida keltirilgandek. Zardusht bobo rastasi yoniga to‘shalgan ko‘rpachaga obdon joylashib cho‘k tushayotib, bir narsadan xavotirlangandek: "O‘zing madadkorsan, Axuramazda..." dedi shivirlab¹. Hikoyada birgina Jajman obrazi orqali insonga xos bo‘lgan ayrim salbiy holatlar, ojizlik jihatlari ham real tasvirlarda o‘z ifodasini topadi. Ojizlik jihatlari deganimizda insonlarning gohida sinovlar oldida ilojisiz qolishlarini nazarda tutyapmiz. Sababi, hikoyada timdagi odamlar ham ilojisiz va ojiz qoladilar.

Hikoyaning mohiyati inson bor ekan, albatta, oq va qora, yaxshilik va yomonlik kabi

¹ X.Do'stmuhammad. Beozor qushning qarg‘ishi. – T.- Sharq 2006. 154-bet; Keyingi o‘rinlarda shu nashrga havola qilinganda qavsda BQQ qisqartmasi va sahifa ko‘rsatiladi.

qarama-qarshiliklar mavjud bo'ladigan tushunchani ochib berishda ko'rinadi. Hikoya sarlavhasining o'ziyoq kitobxonni qiziqitirib qo'yadi. Nima uchun hikoya bunday nom oldi? Tadqiqotchi olimlar ham bu masala borasida ko'p mulohazalar yuritishgan. N.Dovurboyeva Jajman atamasini "jajji" hamda "ya'juj- majuj"dan yasalgan, qabilida taxmin qiladi². Har holda uning izlanishlari e'tiborga loyiq. Ana shu yo'nalishdagi kuzatuv usullarini Ulug'bek Hamdam, Jabbor Eshonqul, O'rol Sodiq kabi adabiyotshunoslar tadqiqotlarida ham uchratamiz.

Har kim bilganicha jajman so'ziga ta'rif berib o'tdi. Biz ham bu masala yuzasidan o'z fikrlarimizni bildirib o'tamiz. Atrofimizdagi insonlar o'rtasida jlovchi va ylovchi sheva vakillari ham uchrab turadi. Issiq nonning orasini ajratib olib, unga saryog'ni aralashtirib iste'mol qilishni "yajman" deb atashganini ham eshitganmiz, albatta. O'z-o'zidan yajman va jajman o'rtasida qandaydir bog'liqlik bordek tuyuladi. Shuningdek, "jajman" va "jajji man" so'zlari orasida ham o'xshashlik borligi seziladi. Sababi, jajman haqiqatdan ham juda kichkina, atigi bir qarich. Lekin hikoya so'ngida ikki qarich jajmanning paydo bo'lishi bu taxminimizning inkor tomoni. Biz xohlaymizmi, yo'qmi "Jajman" hikoyasi ham o'xshashliklardan holi emas. Masalan, Alisher Navoiyning "Xamsa"sidan joy olgan "Saddi Iskandariy" dostonining "Iskandar devorining qurilishi" deb nom olgan qismida devsfat Ahraman va yebto'ymas mahluq - ya'juj-majujlar keltirilgan. A.Navoiy ularni "biri bir qarish bo'lsa, yana biriniki o'n quloch" - deya ta'riflaydi. X.Do'stmuhammad ham jajmanning bir qarich ekanligini qayd etadi. Bu o'z-o'zidan har ikkala ijodkorning bir mahluq haqida fikr yuritayotganini belgilaydi.

Hikoyada ramzli obrazlar mahorat bilan tanlangan har bir obrazning ramzliligi uning ruhiyatini ham ochib bergan. Ba'zi bir obrazlar asarda salbiy obraz sifatida tasvirlanishiga qaramay, aslida u asar mohiyatini va g'oyasini tashkil etishda asosiy yuk tashishi mumkinligini muallif aynan, "Jajman" obrazi orqali ifodalashga harakat qilgan va bunga erishgan ham. Agar jajman so'ziga boshqacha yondashadigan bo'lsak, "jajji man", "jajji men", ya'ni "kichkina men", "mening bir bo'lagim" degan bir ma'no kelib chiqadi. Bu obrazni bir qarashdayoq nimaning ramzi ekanligini bilgandek bo'ladi kitobxon, chunonchi, u ochko'zlik, tekinox'rlilik nafs ramzi, bir so'z bilan norealistik obraz deyish mumkin. Haqiqatan ham, nafs insonning bir bo'lagi. Qarashlarimizning lekin tomoni ham borki, jajman o'z ko'rinishi orqali sotuvchi va xaridorlarni ogohlantiryapti, yaxshilikka, halollikka chaqiryapti. Bu esa obrazning ijobiy tomoni va yozuvchining ramzli obraz yaratishda alohida mahorat sohibi ekanligidan dalolat beradi.

Bu hikoya haqida matbuotda yaxshi fikrlar aytiladi. Xususan, iste'dodli adabiyotshunos G.Sattorova hikoyadagi yozuvchining voqelikni badiiy aks ettirishdagi obrazlar talqini uslubi haqida to'xtalar ekan, undagi badiiy obrazlar qanday holatda tasvir etilmasin ularda "milliy xarakter yaratish yetakchilik" qilishni to'g'ri qayd etadi.³ Buni kitobxon asardagi asosiy realistlik obraz Jajman xarakteri talqinida ham va boshqa ramziy obrazlar chizgilarida ham ko'radi. Shuni ham qayd etish kerakki, adib hikoyalardagi bir qator obrazlar "Bozor"romanida ham "faoliyat"olib borishiga zamin tayyorlaydi. Adabiyotshunos D. Quronov aynan "Jajman"dagi mahluqning romandagi bozor ahli fikrini bayon etishda qo'l kelganini alohida ta'kidlaydi⁴. Rus adabiyotshunosi N. Dragomiretska: "Obraz voqelikni badiiy aka ettirish shakli, xarakter esa obraz mazmuniga mansub kategoriyadir", -deb yozadi. Uning ta'kidlashicha, xarakter yaratishda yozuvchilar turli usullardan foydalanadilar: a) bir toifa yozuvchilar badiiy xarakter xususiyatlarini personaj nutqi orqali aks ettiradilar; b) boshqa yozuvchilarda badiiy obrazning

² O'z AS. 2001 yil, 7 dekabr, № 51 (3636).

³ Sattorova G. Milliy xarakter va badiiy talqin.-Toshkent.- Fan 2007.

⁴ Норматов. У, Куронов Д. Романнинг янги умри.- Жаҳон адабиёти. - 2001, 3 сон

ma'lum predmetga munosabati xarakter yaratishda yetakchilik qiladi; v) uchinchi bir toifa yozuvchilar badiiy obrazlarni tabiat qo'ynida tasvirlash orqali xarakter yaratadilar⁵. Xurshid Do'stmuhammad "Jajman" hikoyasida yuqoridagi uch xususiyat birlashib yangi bir tamoyil - badiiy obrazlarni g'ayrioddiy vaziyatlar qurshovida tasvir etish orqali milliy xarakter yaratish tamoyilini yuzaga keltiradi.

Adib hikoyani aynan bozor tasviri bilan boshlaganida ham falsafiy obraz talqini guvohi bo'lamiz. "Jajman" hikoyasida bozor bu hayot ramzi sifatida tasvirlanadi. Jajman esa insonlar vujudidan paydo bo'lgan nafs timsolidir. Shu o'rinda savol tug'iladi. Nega yozuvchi nafsni "Jajman" obrazi orqali tasvirlagan? Yozuvchi Jajmani tasvirlayotganda uni sichqon, tulki singari ochko'z va ayyor hayvonlarga o'xshatadi, biroq biror to'xtamga kela olmaydi. Bu va bundan keyin ro'y beradigan barcha voqealar markazida Jajman turadi. Bu maxluq goh oshkora, goh pinhon ravishda bozordagi savdogarlarning narsalarini o'g'irlaydi. Lahza o'tmay birov mayizidan, birov turshagidan, birov pulidan ayrilib qolaveradi. Bozor ahli faqat ko'rgulik ro'y bergan daqiqalardagina, shunda ham bir lahza hushyor tortishadi. Jabrdiydani yupatgach, o'zlaricha yordam bergan bo'lishadi. Zardusht bobo uchraganida ham ramziy ma'no bor. Yozuvchi g'oyasiga ko'ra insoniyat hayotida yuz beradigan salbiy hodisalarni anglash uchun avvalo pok qalb va iymon e'tiqod bo'lishi kerak. Bozor ahli orasida esa bunday bahoga faqat Zardusht bobo munosib ko'ringan. Buyuk mutafakkir Jaloliddin Rumiyning "Ichindagi ichindadir" asarida bu haqda shunday yozilgan: "Inson gapiruvchi hayvondir", deyishadi. Asl ma'nosi shudir: "Insondagi hayvoniylikning ozuqasi shahvat qo'zg'otuvchi narsalar va orzulardir, insoniylikning ozuqasi esa bilim, hikmat va Tangrining Jamolidir. Insonning insonligi nafsdan, hayvonligi esa aqldan qochmog'i ila belgilanadir."⁶ Bu aslida Rumi o'ylab topgan gap ham emas, balki insoniyat hayotining mazmun va mohiyatidir. Bu hikmat mifologiyada ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi kurash, g'arb falsafasida dialektik qonuniyat deb ataladi. Zarradek yaxshilikdan eng ulug'vor ezgulikkacha, misqoldek yomonlikdan eng tuban yovuzlikkacha mana shu qonuniyatga bo'ysunadi.

X.Do'stmuhammad asarining yangiligi shundaki, u qadim Sharq-Zardushtiylik falsafasini badiiy voqelikka singdirib yuborishga erishgan. Nafs ramzi orqali milliy xarakterning falsafiy qiyofasini chizgan. Asarda Jajmandan boshqa biror obrazning portreti chizilmaydi. Yozuvchi ularning barchasini o'quvchining o'z tasavvuriga havola qiladi. Jajmanning portretini esa Zardusht bobo tilidan mukammal chizadi. Jajmanda yer yuzidagi barcha jonzodlar sifati mujassam. Shu bois Zardusht bobo Jajmani ko'rgan ilk daqiqalarida uni nimaga o'xshatishini bilmay ikkilanib qoladi: "Bobo hiyla mahal maxluqni kuzatdi, uning qo'li, og'zi tinmas, lekin hali-beri to'yadiganga ham o'xshamasdi" Bobo shundagina bu g'aroyib jonzotning basharasini aniq-tiniq ko'rdi "maxluqning ko'zi, tumshug'i, qulog'i dam sichqonnikiga, dam tulkinikiga o'xshab tinimsiz tovlanar edi". "Olmaxon-ku!" deb yubordi ichida bobo shu zahoti bosh chayqab tulkiminan sichqondan tarqalgan ko'rinadi", "yo odamdan tarqalganmikan?!" deb o'yladi va beixtiyor shak keltirib qo'ygandek yoqasini tupladi".⁷ Bizningcha, bu o'rinda yozuvchi yana ramzga murojaat qiladi. Jajmanning bir paytning o'zida ham hech narsaga ham biror narsaga o'xshashi-nafsning jonli mavjudot uchun xarakterli ekaniga ishora. Chunki nafs berilmagan maxluqning o'zi yo'q. Shu bilan birga nafs talab ehtiyoji chegarasiz. Unga qancha erk berilsa,

⁵ Драгомирецкая. Н Характер в художественной литературе. Проблемь теория литературы, Москва:Наука, 1958, С. 132 133.

⁶ Rumi Jaloliddin. Ichindagi ichindadir (Turk tilidan U. Abduvahob tarjimai) Toshkent: Yozuvchi. 1997. 57-bet.

⁷ (BQQ, 154)

shuncha ehtiyoji ortaveradi. Jajman deb atalgan maxluq ham xuddi shunday xususiyatga ega.

Ramziylik nuqtayi nazaridan bozor bu insoniyatning hayot tarzi, hikoyada tasvirlangan tim devori yovuzlik va ezgulik o'rtasidagi chegara. Bu devor tinimsiz gursillab turadi. Uning orqasida yashaydigan Ahriman devorni buzib insonlar dunyosining o'zining qorong'u dunyosiga qo'shishga intiladi. Asar voqealari rivojlangan sayin tim devorining gursillashi ham zo'rayib boradi. Hikoyaning boshlanishda: "Bobo beixtiyor ustma-ust taxlangan qanor-qoplarning cho'g'ini chamaladi, yana picha yurdi, so'ng sotuvchi ahli siyraklashgani bois tim adog'iga-devorga yetmay iziga qaytdi. qaytayotib orqa tomondan kimdir devorni mushlayotgandek gursillagan tovushni eshitadi."⁸ Jajman haqidagi gap so'zlar haqiqatga aylanadi. Odamlar goh uni tushunmoqchi bo'ladi, goh erkalatashadi, goh uning qiliqlaridan hayratga tushadi. Hatto turshakfurushlardan biri; - Manashi sichqonbashara bilan kelishaylik. Yeganicha yesin, angishvonadek qorniga dunyoni yutvormas!", degan taklifni ham qiladi. Yong'oqfurish Jajmanni "Yo'qol-e!" deb haydab soladi. (Bu nafsga malum muddat kishan solishni eslatdi) Timdoshlar esa Bobo yong'oqfurushni tana-malomatlarga ko'mib yuborishadi; "Ermak edi, mana Tim huvillab qoldi, to'rtta yong'oqni ko'zingiz qiymasa o'zimiz boqardik" deyishadi.⁹

Hikoya syujetining shu joyida beriladigan Zardusht boboning tushi tasvirida ham ramziy mano bor. Zardusht bobo tushida Otash momosini (Otash- olov –zardushtiylikda hayot ramzi) moviy ko'z dev hovuchida olib ketadi. Uyg'onganida momosining o'lib qolganini ko'radi. Bu tushdan ajdodlar sabog'ini unutish, o'zligini unutish nafsga qul bo'lishdir, degan xulosa chiqadi. Go'yo pokdomon Zardusht boboni pokdomon Otash momo falokatlardan ogohlantiradi. Zardusht bobo esa loqayd, bu holni ko'ra-bila turib beparvo tomosha qiladi... Jajmanning ochko'zligiga mahliyo bo'lib, unga qarshi kurashishni xayoliga ham keltirmaydi. Zardusht boboda kurashchanlik yo'q, faqat nima qilarini bilmay hayron bo'lib turaveradi. Birovning rizqiga qo'l cho'zgan kishiga bunday munosabat Zardusht bobo kabi loqayd odamlarning qon-qoniga singib ketgan. To'g'ri, bir qarashda juda loqayd va o'zi bilan o'zi ovora, beparvo ko'rinadi bu obraz.

Lekin har bir obrazning o'z yuki va vazifasi bo'ladi. Nazarimizda, muallifning Zardusht boboga bergan ruhiyat tasvirini bunday sovuqqonlik bilan baholash kerak emas. Sababi, Zardusht bobo ming yil yashagan odam. U razilliklarni ham, ezguliklarni ham ko'rib, allaqachon qanday xulosa chiqarish kerakligini anglab yetgan odam. U paydo bo'lgan birinchi jajmanga hech qanday chora ko'rmaganligining sababi ham aynan shunda. U biladiki, agar birini o'ldirsa, tabiiyki ikkinchisi, albatta, paydo bo'ladi. Bu esa Axuramazda va Axrimanning kurashini esga soladi.

Xurshid Do'stmuhammad "Jajman" hikoyasidagi obrazlar talqini orqali ijtimoiy hayotdagi asosiy illat bo'lgan nafsi buzuvchilikni va u orqali kelib chiqadigan boshqa illatlarni ko'rsatib bera olgan. Biroq "Jajman"ning asl ma'nosini hali-hanuz yozuvchining sof jumbog'i bo'lib kelmoqda". Yozuvchi mana shu hikoyasi bilan odatdagi yo'ldan yurmaslik kerakligini eslatib o'tganday bo'ladi. Xurshid Do'stmuhammad haqiqatdan ham, ijodi orqali obrazlarni xarakterlash, ularning xatti-harakatlariga mos detallardan foydalanish, real hayotiy voqelikni jonli qilib aks ettirish kabi usullarni qo'llash orqali ancha muvaffaqiyatga erishgan. Bu jihatni uning ijodiga bir nazar tashlagandayoq sezish mumkin. X.Do'stmuhammad ijodida qisqa va aniqlik doimo ilgari suriladi.

⁸ (BQQ, 157)

⁹ (BQQ, 157)

REFERENCES

1. Драгомирецкая.Н. Характер в художественной литературе. Проблемь теория литературы, Москва: Наука,1958, С. 132 133.
2. Дўстмуҳаммад Х. “Ижод- кўнгил мунавварлиги”. Т., “Мумтоз сўз”, 2001
3. Дониёрова Ш. // ”Бозор”романи ҳақида яна бир гап. // Шарқ юлдузи журнали, 2001, 4сон;
4. Ризаев Ш. // Яхши ”Ёмон” одам ёхуд янгиладанёган реализм. “Шарқ юлдузи”, 2011, 3-сон;
5. Сатторова Г. //90-йиллар ўзбек ҳикоячилиги миллий характер муаммоси Т.: 2002, 3-бет;
6. Содик С. // Ижоднинг ўттиз лаҳзаси.Т.; Шарқ, 2005;
7. Холмирзайев Ш. // Ҳикоя ҳақида . Шарқ юлдузи 1971-йил, 1-сон.
8. Ёўлдошбеков Ж. //Роман ва замон. («ўзАС», 2000 йил 20 октабр)
9. Do‘stmuhammad X.Bozor roman -:T Sharq,2000,192 b.
10. Do‘stmuhammad X Beozor qushning qarg‘ishi hikoyalar- T: Sharq 2006 – 512 bet
11. Do‘stmuhammad X. Qissalar –T: Sharq 2011: - 512 b